



O‘ZBEK KASHTACHILIK TARIXI VA UNING MADANIY AHAMIYATI

Gavhar Eshova,

Shahrisabz Davlat muzey qo‘riqxonasi bo‘lim boshlig‘i

Shahodat Sodiqova,

*Shahrisabz Davlat muzey qo‘riqxonasi
katta ilmiy xodimi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606628>

Annotatsiya. O‘zbek milliy kashtado‘zlik xalq hunarmandchilik san’atining eng qadimiy turlaridan bo‘lib, u xalqning o‘z turmushini go‘zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda uy-ro‘zg‘or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo‘llaniladi.

Kalit so‘zlar: kirpich, so‘zana, zardevor, gulko‘rpa, choyshab, shoyi, adras, baxmal, kashta.

Annotation. Uzbek national embroidery is one of the oldest forms of folk crafts, which arose as a result of the people's desire to make their life beautiful. Embroidery has been used since ancient times for decorating clothes and items, as well as for making household decorative items.

Keywords: brick, suzani, wall hangings, flower blanket, sheet, silk, adras, velvet, embroidery.

O‘zbek xalqining boy moddiy va ma‘naviy merosi orasida kashtachilik san’ati alohida o‘rin tutadi. Ming yillik tarixga ega bo‘lgan kashtachilik o‘zbek ayollarining nafis didi, mehnatsevarligi va mahoratini aks ettiruvchi hunarlardan biri hisoblanadi. O‘rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo‘lib, oilada kashta tikish bilan faqat ayollar shug‘ullanishgan. O‘tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla, shoyi, adras, baxmal matoga tikilgan. Xalq badiiy hunarmandchilik mahsulotlari faqat bizning mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarda ham cheksiz talab qilinadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo‘lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o‘sha yerda kashf qilishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kiringach ipak, zar yoki jun ip qo‘shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Kashtachilik san’atining an‘analari Vizantiyada ham rivoj topgan. [1, b. 35-35]

XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo‘lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmoniy turklar ham ushbu san’atga o‘zlarining munosib ulushlarini qo‘shganlar. Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib kashtachilik san’atini o‘rgangan. Rus kashtasi gullarining xarakteriga va tikilish usullariga ko‘ra juda turli-tuman bo‘lgan. Hozirgi vaqtda Rossiyada ellikdan ortiq baxyasimon kashtado‘zlik korxonalari bor. Ivanova, Ryazan, Kalinin, Smolensk va boshqa oblastlarda kashtado‘zlik markazlari bo‘lib, u yerdagi korxonalarda turli kiyimlar va uy ro‘zg‘orni bezaydigan turli buyumlar ishlab chiqariladi. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarini vujudga kelishiga asos soldi.[2]



Kashtadoʻzlikning yirik namoyondalaridan Andijondagi “Qizil bayrog” arteli rassom kashtadoʻzi X. Nazarov, Samarqanddagi “Xotin-qizlar mehnati” arteli kashtadoʻzi Usmon Shokirov, Toshkentlik kashtadoʻz va chizmakash Xayri Sobirovalar kashta buyumlariga yangi turli xil naqsh, kompozitsiya va tikish usullarini yaratdilar. Milliy kashtachilik amaliy sanʼatning eng qadimiy turlaridan boʻlib, u xalqning oʻz turmushini goʻzal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik sanaʼti nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. Oʻzbek xalq ustalari qoʻllari bilan tikilgan kirpech, soʻzana, zardevor, gulkoʻrpa, choyshab kabilar Belgiya, Amerika Qoʻshma Shtatlari, Hindiston, Afgʻoniston kabi xorijiy mamlakatlarda ham dongʻi ketgan. Oʻzbekistonda kashtachilik davomida avloddan-avlodga oʻtib kelayotgan qadimiy hunarmandchilik boʻlib, oʻzbek madaniyatining eng ifodali turlaridan biri boʻlib qolmoqda. Uning yorqin ranglari, ishonchli tikuvlari va mazmunli ramziyligi chuqur tarixni va har bir qismga kiritilgan oʻziga xos mintaqaviy xususiyatni ochib beradi. Bu anʼana uzoq vaqtdan beri xalq kiyimidan ajralmas boʻlib kelgan. Kashta tikilgan choyshablar, gilamchalar, dasturxon va boshqa matolar kundalik hayotning tanish qismi boʻlib qolmoqda. Soʻzanalar uchta asosiy mahalliy uslubga boʻlinadi: Buxoro, Samarqand va Fargʻona. Buxoro uslubi Nurota, Shahrisabz va Kitob kashtalariga, Samarqand uslubi esa Toshkent, Jizzax va Boysun kashtalariga oʻxshaydi. Soʻzaning mintaqaviy turlari oʻzlarining motivlari, umumiy tarkibi, naqshning zichligi va ranglar palitrasi bilan farqlanadi, shuningdek soʻzana va kashtalar Respublikamizning Fargʻona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy sanʼat muzeylarida koʻp namunalari toʻplanib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan.[3]

Kashtadoʻzlik rivojlangan xalqlarda unga tasviriy sanʼatning taʼsiri katta boʻlgan. XI asrga oid ingliz kashtalarida jang lavhalarini aks ettirilgan. XII asrga mansub rus kashtalarida Vizantiya ikona sanʼatining taʼsiri koʻzga tashlanadi. Xitoyda XIV asrdan "syuxua" (ignali tasvir) nomi bilan mashhur boʻlgan kashtali namoyonlar uslub jihatdan shoyiga tush bilan ishlangan manzara janriga yaqin. Yevropada Kashtadoʻzlik Uygʻonish davrida yuqori pogʻonaga koʻtarildi. Davrning buyuk rassomlari (Perujino, Bottichelli) kabilar kashtadoʻzlar uchun andazalar tayyorlab berishgan, bu esa kashtalarning badiiyligini oshirgan. Kashtadoʻzlikda qimmatbaho toshlardan ham foydalanilgan, ip, jun, ipak, zar va kumush suvi berilgan iplar ishlatilgan. XVIII asrda Yevropada aslzodalar kiyimini bezashda kashtalardan foydalanib tayyorlangan kashtadoʻzlik buyumlari keng tarqalgan.[4] XIV-XV asrlarga oid kitoblardagi miniatyuralar Kashtadoʻzlikning qadimdan keng rivojlanganini koʻrsatadi. Jumladan, Amir Temur saroyida yashagan ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo oʻz esdaliklarida saroyda kashta bezaklarini tomosha qilganini yozgan. Kashtachilik kishilarga estetik zavq bagʻishlashi, uyni bezatishdagi ahamiyati bilangina emas, balki asrlar davomida shakllangan odat va rasm-rusumlar sababli ham xalq turmush tarzida muhim oʻrin tutadi. Kashtalarning koʻrinishi, shakli, katta-kichikligi va mato yuzasida gullar qay tarzda tikilgani ularning turmushda tutgan oʻrnini belgilaydi. Deyarli har bir oila oʻz ehtiyoji uchun turli



kashtachilik buyumlarini o‘zi tikkan. Kashta choklari, kashta tikish va uslublarining turli-tumanligi o‘zbek kashtado‘zlarining katta san‘atidan dalolat beradi. Masalan Nurota, Buxoro, Samarqand Kashtado‘zlik mahsulotlari ko‘proq yo‘rma chok bilan, Shahrisabzda yo‘rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko‘proq bosma chok bilan tikilgan. Ijtimoiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlar Kashtado‘zlik an‘analariga, mahsulotning turlariga ta‘sir ko‘rsatgan.[5]

Kashtachilik san‘ati — o‘zbek xalqining qadimiy amaliy bezak san‘atlaridan biri bo‘lib, asrlar davomida shakllanib, avloddan avlodga meros bo‘lib kelayotgan bebaho madaniy boylikdir. Kashtachilik nafaqat maishiy ehtiyojni qondirgan, balki xalqning didi, dunyoqarashi, badiiy tasavvuri va an‘analarini ifodalagan. O‘zbek ayollarining qo‘l mehnati bilan yaratilgan kashtalari dunyo bo‘ylab mashhur bo‘lib, san‘atning alohida yo‘nalishi sifatida e‘tirof etiladi. O‘zbek kashtachiligining ildizlari miloddan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologik topilmalarda qadimiy matolar, ipak va jun iplar bilan tikilgan naqshlar uchraydi. Ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Farg‘ona vodiysi, Surxondaryo hududlarida kashtachilik juda qadimdan rivojlangan.

XVIII–XIX asrlarga kelib kashtachilik yuksak darajada taraqqiy etib, har bir viloyatning o‘ziga xos uslub, rang va naqsh tizimi shakllangan. Masalan:

Buxoro kashtachiligi — oltin va kumush iplar bilan tikilgan zardo‘zlik an‘analari.

Shahrisabz kashtasi — yirik gullar, yorqin qizil va sariq ranglar.

Farg‘ona kashtachiligi — mayda gul naqshlar, nozik tikuvlar.

Surxondaryo — an‘anaviy geometrik va o‘simliksimon naqshlar.

Mato turlari: adras, atlas, boshqiyom, bo‘z, ipak matolar

O‘zbek kashtachiligi juda boy tikuv uslublariga ega. Eng mashhur turlari: Iroqi tikuv, bosh tikuv, zanjircha tikuv, yo‘rma tikuv, bosma tikuv, qo‘sh yo‘rma.

Shahrisabz davlat muzeyi qo‘riqxonasining etnografiya bo‘limi ko‘rgazma zalida ham o‘zbek xalqining boy madaniy merosi va qadimiy hunarmandchilik an‘analari aks ettirilgan noyob eksponatlar saqlanadi. Ushbu ko‘rgazma zalida milliy kashtachilik san‘atining turli namunalarini, xususan, so‘zana, zardevor, joynamoz, joypush, iroqi uslubidagi kashtalar hamda milliy liboslar, qadimiy paranchilar, ro‘mollar, gilamlar, qolaversa bosh kiyimlardan biri hisoblangan do‘ppilarni turli xillarini ko‘rish mumkin.

O‘zbek milliy kashtachiligi xalq amaliy sa‘atining eng nafis va qadimiy turlaridan biri hisoblanadi. Kashtachilik buyumlari asosan qo‘lda tikilib, unda rang-barang ipak va paxta iplaridan foydalanilgan. Kashtalarda ko‘pincha o‘simliksimon, geometrik hamda quyosh timsolidagi naqshlar uchraydi. Ko‘rgazma zalidagi muhim eksponatlardan biri — so‘zana hisoblanadi. So‘zana qadimdan kelin sepining ajralmas qismi bo‘lib, uy ichini bezash va marosimlarda foydalanish uchun tikilgan. So‘zanalar yirik hajmli bo‘lib, ularda gullar, barglar, quyosh ramzlari va boshqa bezak elementlari tasvirlangan. Har bir so‘zana o‘zining ranglar uyg‘unligi va murakkab naqshlari bilan ajralib turadi. Zardevor esa xonalarni bezash uchun ishlatiladigan kashtali mato hisoblanadi. U asosan devorga osib qo‘yilgan bo‘lib,



xonadonning bezagi va boyligini ifodalagan. Zardevorlarda ham milliy naqshlar, o‘simliksimon bezaklar va ramziy tasvirlar keng qo‘llanilgan. Ko‘rgazmada namoyish etilgan iroqi uslubidagi kashtalar o‘zining mayin va murakkab tikish usuli bilan ajralib turadi. Ushbu uslubda tikilgan buyumlar o‘zining nafisligi, aniqligi hamda ranglar uyg‘unligi bilan qadrlanadi. Iroqi kashtalari ko‘pincha kiyim-kechaklar va uy-ro‘zg‘or buyumlarini bezashda qo‘llanilgan. Shuningdek, ko‘rgazma zalida milliy bosh kiyim — do‘ppilarning turli namunalarini ham ko‘rish mumkin. Do‘ppilar hududlarga qarab naqsh, rang va tikilish uslubi bilan farqlanadi. Ular o‘zbek xalqining milliy libosining ajralmas qismi bo‘lib, xalqning estetik didi va an‘analarini aks ettiradi. Mazkur ekspozitlar o‘zbek xalqining ko‘p asrlik hunarmandchilik tajribasi, milliy qadriyatlari va badiiy tafakkurining yorqin namunasi hisoblanadi. Shahrizabz davlat muzey qo‘riqxonasidagi ushbu ko‘rgazma tashrif buyuruvchilarga milliy merosimizni chuqurroq o‘rganish hamda qadimiy an‘analarimiz bilan yaqindan tanishish imkonini yaratadi. O‘zbekiston kashtachilik san‘ati o‘zining boy tarixi, madaniyati va o‘ziga xosligi bilan xalqimizning ajralmas madaniy merosi hisoblanadi. Har bir mintaqa, jumladan, Buxoro, Samarqand va Toshkent kashtachilik san‘ati o‘ziga xos uslublari, naqshlari va ramziy ma‘nolari bilan bir-biridan farq qiladi. Buxoro kashtachiligi murakkab naqshlar, yuqori darajadagi estetikaga ega bo‘lib, ko‘pincha boyluk va mo‘l-ko‘lchilikni ifodalaydi. Samarqandda geometrik shakllar va tabiiy elementlar ko‘proq uchrab, yangilanish va unumdorlik ramzi sifatida qabul qilinadi. Toshkent kashtachiligida esa naqshlar oddiyroq bo‘lsa-da, ularning simmetrikligi va rang-barangligi diqqatga sazovor. Kashtachilik san‘ati to‘y va diniy marosimlarda ham katta ahamiyatga ega. [6, b.97-98]

To‘y liboslari va marosim buyumlaridagi naqshlar baxt, farovonlik va oilaviy barqarorlikni ifodalaydi. Diniy marosimlarda kashtachilik mahsulotlari ruhiy poklanishni anglatib, ma‘naviy qadriyatlar bilan bog‘liqdir. Shu bois, kashtachilik nafaqat dekorativ san‘at turi sifatida, balki xalqning ruhiy va madaniy merosini ifodalovchi vosita sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Iqtisodiy jihatdan kashtachilik mahsulotlari O‘zbekistonning xalqaro bozordagi o‘rnini mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Buxoro, Samarqand va Toshkent kashtachiligi xalqaro miqyosda ham talabga ega bo‘lib, eksport hajmi yil sayin oshib bormoqda. Buxoro va Samarqand mahsulotlari xalqaro festivallar va ko‘rgazmalarda yuqori baholangan, bu esa ushbu hunarning nafaqat estetik, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega ekanligini ko‘rsatadi. O‘sha vaqtlarda beklar va amirlar saroylari kashtachilik namunalariga buyurtma beruvchi asosiy iste‘molchilardan hisoblanar edi. Shu bois bu milliy mahsulot ko‘pincha shahar muhiti va tarovatining estetik didini o‘zida aks ettirgan. Ma‘lumki, ulug‘ sarkarda Amir Temur ham o‘sha vaqtlarda boshqa yurtlardan eng yaxshi naqqosh va hunarmandlarni olib kelganligi bois shaharda hunarmandchilik yaxshi rivojlangan. Natijada Shahrizabz kashtachiligida ham naqqoshlik, o‘ymakorlik bilan bog‘liqlik, gul shakllarining tushurilishi, barg naqshlari bilan boyitilgan o‘simlik shakllarini ifodalovchi bezak uslublari yaxshi rivojlangan va haqiqiy bezak



kompozitsiyalarini, xalqona shakllarni o‘zida mujassamlashtirgan tasvirlar paydo bo‘lgan. Kashtalar tayyorlashda qo‘lda tikilgan paxta yoki shoyi matodan, shuningdek, ipak va jundan foydalanilgan.[7. <https://cyberleninka.ru>]

Shu tariqa kashtachilikning rivojlanishi tufayli Shahrisabzda hunarmandchilikning bu turi o‘z rang-barangligi va sifatligi bilan dovrug‘ qozongan. Umuman olganda, o‘zbek kashtachiligi milliy merosimizning ajralmas qismi bo‘lib, uning rivojlanishi va xalqaro miqyosda tan olinishi O‘zbekistonning madaniy merosini saqlashda va uni dunyo bo‘ylab tarqatishda katta ahamiyatga ega. Kashtachilik san’ati orqali milliy qadriyatlarimiz avloddan-avlodga yetkazilib, global madaniy muloqotda muhim rol o‘ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Jabborov “O‘zbek xalqi etnografiyasi” T.- 1994
2. M. Rustamov “O‘zbekiston etnografiyasi” T.-1991I-IV jild
3. U. Qoraboyev “O‘zbek bayramlari” T-1191
4. Sodiqova N. “O‘zbek milliy kashtachiligi”-Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, 010
5. Raximov M.”O‘zbek xalq hunarmandchiligi” – Toshkent: San’at,2025
6. Ming yillar merosi “Sharq” nashriyoti-Toshkent: 2002
7. <https://cyberleninka.ru>